

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TEMIROV FARRUX UMEDOVICH

**SADRIDDIN AYNIYNING TURKISTON MINTAQASIDAGI IJTIMOIIY-
MADANIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI VA ILMIY MEROSI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of abstract of the doctor of dissertation

Оглавление автореферата докторской диссертации

Temirov Farrux Umedovich

Sadriddin Ayniuning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosi 3

Темиров Фаррух Умедович

Роль Садриддина Айни в социально-культурной жизни Туркестанского региона и его научное наследие..... 31

Temirov Farrukh Umedovich

The role and scientific heritage of Sadriddin Ayni in the social and cultural life of Turkestan region..... 63

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 69

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TEMIROV FARRUX UMEDOVICH

**SADRIDDIN AYNIYNING TURKISTON MINTAQASIDAGI IJTIMOYIY-
MADANIY HAYOTDA TUTGAN O'RNI VA ILMIY MEROSI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Tar35 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" (www.ziynet.uz) axborot-ta'lim tarmog'iga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Rajabov Qahramon Kenjayevich**
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Rahimov Komiljon Rahmatovich**
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Timur Kocaoglu
tarix fanlari doktori, professor

Hasanov Baxtiyor Vaxapovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 13 sentabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (720 raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25 avgust kuni tarqatildi (2025-yil 25 avgust dagi 2042 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.T. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), professor

B.B. Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha filsofa doktori (PhD), dotsent

K.R. Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv natijasida ta'limni isloh qilish, milliy o'zlikni anglash va mustahkamlash, milliy til, madaniyat va adabiyotni rivojlantirishda buyuk allomalarning merosidan foydalanishni davr taqozo etmoqda. Jahon tamadduniga hissa qo'shgan ulamolarning ilmiy merosidan foydalangan holda ommaviy savodxonlikni oshirish, milliy adabiyotning shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda ma'rifatparvarlik, jadidchilik yo'nalishlarini yaxlit tadqiq etishga zarurat kuchaymoqda. Shu boisdan, har bir millatning tarixi, adabiyoti, ona tili, yozuvi va diniy e'tiqodi hamda umumbashariy qadriyatlari bilan uyg'unlikda taraqqiy etish dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida turkistonlik mutafakkir allomalar, milliy ziyolilar va ma'rifatparvarlarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadid namoyandalarning ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rni borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada, ma'rifatparvar adiblarning hayoti va faoliyati, XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragidagi madaniy hayotiga doir ko'plab ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Shunday bo'lsa-da, XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar, olim va jamoat arbobi Sadridin Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rni, fan va maorifning rivojlanishiga qo'shgan hissasi, uning publitsistik faoliyati, tarixiy-badiiy asarlarini tarixiy tahlil qilish masalalari o'z yechimini kutmoqda.

Yangi O'zbekistonda buyuk allomalar, mutafakkirlar, ma'rifatparvar olimlarning, xususan, jadidlar ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz"¹. Sababi, jadidlarning orzusi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zlikni anglash, millatni tanazzuldan chiqarish, ilg'or xalqlar qatori jahon madaniyati tizimidan joy olish, o'z madaniyatini dunyo jamoatchiligiga tanitish, ilm-fanni rivojlantirishdan iborat edi. Ular mamlakat taraqqiyoti uchun ilm-fan va maorifni eng birinchi zarurat deb hisoblashdi. Shu nuqtayi nazardan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan, o'z davrining ilg'or namoyandalari bo'lgan Turkiston jadidlarining ilmiy merosini o'rganish tarix fani oldida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-sonli, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli, 2024-yil

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 6-mart sanasidagi Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. URL: <https://www.president.uz/uz/lists/view/6007>

30-maydagi “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-201-sonli qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Turkiston va Sharq mutafakkir adiblarining ilmiy merosi, jadidchilik, ma’rifatparvarlik harakati tarixi masalalari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Michigan universiteti, Chikago universiteti, Karlton Kolleji (AQSh), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari instituti, Qozon Federal universiteti (Rossiya), Humboldt universiteti (Germaniya), Baku davlat universiteti (Ozarbayjon), Istanbul universiteti (Turkiya), Anqara universiteti (Turkiya), Xoja Bayram Vali universiteti (Turkiya), Tokio universiteti (Yaponiya), Xalqaro Islom universiteti (Pokiston), Quvayt adiblar uyushmasi (Quvayt), Tojikiston milliy universiteti, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O‘zR FA Tarix instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida jadidchilik, ma’rifatparvarlik harakati tarixi masalalari borasida, xususan, Sadridin Ayniy faoliyatiga doir quyidagi ilmiy yangiliklar olingan: Jadid matbuoti va noshirchilik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari (Anqara universiteti, Turkiya); jadid adabiyoti, Sadridin Ayniyning tarixiy qarashlari, Buxoro tarixiga oid asarlari, jumladan, “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asari turli tillarga tarjima qilinib, uning ilmiy merosi tarixan tahlil qilindi (Tokio universiteti, Yaponiya); Turkiston jadid namoyandalarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati, milliy ziyolilarning yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga doir ishlari (Istanbul universiteti, Turkiya); Turkistonda fan, maorif va madaniy sohasidagi olib borilgan keng islohotlari (Xalqaro Islom universiteti, Pokiston); Markaziy Osiyo mutafakkirlari, milliy ziyolilarning ilmiy merosi, ijtimoiy faoliyati (Qozon federal universiteti, Rossiya); Sadridin Ayniyning ilmiy merosida tarixnavislik, adabiyotshunoslik, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, matbuotchilik, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish borasidagi ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va xulosalar keltirildi (Baku davlat universiteti, Ozarbayjon).

² **Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:** <https://umich.edu/>, <https://www.uchicago.edu/>, <https://www.carleton.edu/>, <https://www.ivran.ru/>, <http://www.ybu.edu.tr/>, <https://kazgau.ru/>, <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>, <https://www.iiu.edu.pk/>, <https://www.kuna.net.kw/ArticleDetails.aspx?id=3219936&Language=en> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Dunyoda Turkistondagi ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik va jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid milliy ziyolilarining ijtimoiy-marifiy qarashlari va faoliyati tarixi (Michigan universiteti, AQSH), Buxorodagi jadidchilik, ma'rifatparvarlik harakati namoyandalarining ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlari Sadridin Ayniy ilmiy merosining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, uning ilmiy-amaliy ahamiyati (Chikago universiteti, AQSH), jadidlarning ilmiy-ma'rifiy va adabiy aloqalari, Turkistonda matbuotchilikni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlari, jadid maktablari uchun yangi o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish, ularning asosiy maqsadlaridan biri bo'lganligi yoritilgan (Sankt-Peterburg universiteti, Rossiya), Turkiston jadidlari, ma'rifatparvarlarining ilmiy-ma'naviy merosi, manbalarning tasnifi ishlab chiqilgan (Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari instituti), XX asr birinchi choragida Turkiston mintaqasida kechgan adabiy, ilmiy-ma'rifiy jarayonlarda jadidlarning tutgan o'rni va Turkiston jadid-ma'rifatparvarlari ilmiy-adabiy merosiga (Humboldt universiteti, Germaniya) oid ilmiy tadqiqotlar nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida chuqur o'rganilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sadridin Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rni va ilmiy merosi dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. *Buxoro amirligi davrida yozilgan tarixiy asarlar.*
2. *Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan ilmiy kitoblar.*
3. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ilmiy tadqiqotlar.*
4. *MDH davlatlari va xorijda chop etilgan ilmiy-tarixiy adabiyotlar.*

Birinchi guruhga mansub Buxoro amirligi davrida yozilgan asarlarda, jumladan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragida yashab o'tgan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Mirza Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Mirzo Salimbek, Afzal Maxdum Pirmastiy Buxoriy, Mirza Sahbo Vobkandiy, Hoji Muhammad Ne'matullo Muhtaram, Idrisxoja Rojjiy, Shohin, Hayrat, Muhammad Siddiq Hashmat Buxoriy, Ibrohim Saidkamolzoda, Abduqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy Ajziy, Vasliy Samarqandiy, Vadud Mahmud, Mirzo Abdulvohid Munzim kabi zamondoshlari, ilm-fan ixlosmandlari asarlari, xotiralari va ayrim tazkiralarda S.Ayniy haqidagi dastlabki ma'lumotlar uchraydi.

Adibning hayotlik chog'idayoq uning shaxsi, ijodi, jadidchilik hamda taraqqiyparvarlik faoliyatiga xolisona baho berganlar. Jumladan, o'sha vaqtdagi adabiy va tarixiy muhitning namoyandalari qatorida S.Ayniy ehtiromlar va samimiyat bilan tilga olgan Abdullaxoja Abdiyning 1904-1906-yillarda tuzgan "Shuaroyi mutaaxxirini Buxoro" asarida uni "zakovatli, bilimdon, nodir fikrlar sohibi" tarzida tavsiflagan. Afzal Maxdum Pirmastiy Buxoriyning "Afzal ut-tazkor fi zikr ash-shuaro va-l-ash'or" ("Shoirilar va she'rlar haqidagi Afzal tazkirasi") kitobida (1904) "Ayniy Sadridinxoja adabiyotshunos va talantli shoir, noyob iste'dod sohibidir"³, deb tilga olingan. Hoji Azim Sha'riyning "Tazkirat ush-shuaro", Hoji Muhammad Ne'matullo Muhtaramning 1908-yilda yozgan

³ Пирмастий, Афзалмахдум. Афзалу-т-тазкор фи зикр аш-шуаро вал аш'ор. Чопи сангй. Тошканд: Литография Г.Х. Орифчонов, 1336/1918. – Сах.72; Мулложонова З.,Азизкулов Ж. Фехристи асарҳои С.Айнӣ ва адабиёт оид ба ӯ (то охири соли 1961). – Душанбе, 1963. – 326 с.

tazkirasida, u haqda o‘zining ijobiy fikrlarini bildirib, “tarixnavis adib va benazir shoir”⁴ deb ta’riflab o‘tgan.

O‘z davrining mashhur ziyolilaridan biri, ilm-ma’rifat ixlosmandi Sharifjon Maxdum Sadr Ziyov⁵ (1867–1932) o‘zining “Tazkirat ush-shuaroyi mutaqqaddimin” kitobida 162 nafar, “Shuaroyi mutaaxxirin” tazkirasida 80 dan ortiq va “Fuzaloyi mutaaxxirin” tazkirasida tilga olingan 79 nafar shoir va olim qatorida S.Ayniyning o‘sha davrdagi adabiy muhitning eng ko‘zga ko‘ringan siymolaridan biri sifatida hurmat bilan tilga olgan⁶. Taniqli tarixchi olim va davlat arbobi Mirzo Salimbek⁷ adibning taraqqiyparvarlik va maorifparvarlik faoliyatiga, o‘zbek milliy ziyolilaridan Hoji Muin Shukrullo⁸ esa S.Ayniyning ma’rifiy-tarixiy qarashlariga, matbuotchilik va publitsistik faoliyatiga xolisona baho bergan.

Ikkinchi guruhga sovet hokimiyati yillarida yozilgan, nashr etilgan bir qator asarlar, ilmiy tadqiqotlar va davriy matbuot materiallari o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Sovet davrida, Buxorodagi jadidchilik harakati vakillari F.Xo‘jayev⁹, Fitrat¹⁰, shuningdek, olimlardan I.Umnyakov¹¹, Muhammad Ali Baljuvoni¹² va boshqalarning ishlarini kiritish mumkin. Bu tadqiqotlarda S.Ayniyning ijtimoiy qarashlari, ma’rifatparvarlik faoliyatiga baho berilgan.

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonda S.Ayniyning ijodiy faoliyati va ilmiy merosini o‘rganish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Olim Sharafiddinov¹³, Yusuf Sultonov va Homil Yoqubov¹⁴ kabi taniqli o‘zbek adabiyotshunos olimlari XX asr 30-yillarida S.Ayniy ijodi haqidagi maqolalari bilan mahalliy matbuotda chiqishgan edi. Sh.Rajabov, Y.E.Bertels, Z.Rajabov va I.Braginskiy kabi olimlarning¹⁵ asarlarida Buxoro va Turkiston jadidchilik, ma’rifatparvarlik harakatida S.Ayniyning tutgan o‘rni, jadid maktablaridagi faoliyati va tarixchilik iste’dodi kabi muammolar imkon qadar ochib berilgan.

⁴ Хожи Нейматуллох Муҳтарам. Тазкирату-ш-шуаро. – Душанбе, 1975. – Саҳ. 61.

⁵ Tazkare Ash‘ar. Sharif-jan Makhdum Sadr Zia, Ed., by M.J.Shakuri Bokhari. – Tehran, Soroush Press, 2001. – P. 332.

⁶ Qarang: Саҳобиддин Сиддиқӣ. Садри Зиё ва тазкираҳои ӯ. – Душанбе: Шӯжонён, 2010. – саҳ. 102, 172, 178; (Shuningdek, qarang: Садри Зиё. Наводири Зиёя. – Душанбе, 1991. – Саҳ. 5).

⁷ Мирзо Салимбек. Тарихи-и Салими. (Источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского вводная статья и примечания Н.К.Норкулов. – Тошкент: Академия, 2009. – Стр. 143.

⁸ Hoji Muin. Yangi asar (Buxoro inqilobi tarixi asarida haqida). // “Mehnatkashlar tovushi”, 1921, 12-may. – B.5

⁹ Хўжаев Ф. Бухородаги революция ва Ўрта Осиёнинг миллий чегараланишига доир / Танланган асарлар. Уч томлик. 1-т. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 94, 99, 111, 114.

¹⁰ Фитрат. Сарсухан ба асари Садриддин Айни “Одина” /Айни С. Одина. – Самарқанд-Душанбе, 1927. – Саҳ. 2-3.

¹¹ Умняков И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень Средне-Азиатского Государственного университета. Выпуск 16. – Ташкент, 1927. – Стр. 81–99.

¹² Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеи. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 53-54.

¹³ Садриддин Айнийнинг эълон қилинмаган мактублари // “Шарқ юлдузи”, 1971 йил, – № 3. – Б. 201.

¹⁴ Ёқубов Х. Ўзбек поэзияси ва прозасида социалистик реализм масалаларига доир баъзи мулоҳазалар // “Шарқ юлдузи”. 1959, – № 2. – Б. 45–48.

¹⁵ Раджабов Ш. Джадидизм и Туркестане (1905–1917 гг.). Тезисы на диссертации на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Ленинград, 1937. – Стр.21; Бертельс Е. Состояние работ по изучению истории таджикской литературы // Записки Института востоковедения АН. – Москва, 1933. Т. 2. – Стр. 89–106; Ражабов З. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX – и в начале XX вв. – Душанбе, 1957. – Стр. 243–295; Брагинский И. Садриддин Айни (Материалы и биографии и творческой характеристике). – Сталинобод, 1948. – Стр. 13–23; От Авесты до Айни. – Душанбе: Ирфон, 1981. – Стр 40-42.

Adabiyotshunos olim va tarjimon Majid Hasanovning “Ayniy chamani”, “Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo‘jayev” kabi kitoblari¹⁶ alohida o‘rin tutadi. M.Hasanov o‘zbek va tojik adabiyoti rivojida S.Ayniyning ilmiy merosi, ijodiy faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini qayd etib, uning o‘zbek tilida sakkiz jildlik asarlar to‘plamini nashr qilish ishida ham faol qatnashdi. Shuningdek, tarixchi olim O.Eshonov o‘zining Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tarixiga bag‘ishlangan asarida¹⁷ S.Ayniyning tarixnavislik iste’dodi va tarixiy qarashlariga to‘xtalib o‘tgan.

S.Ayniy ijodini o‘rganish va uning asarlarini keng targ‘ib etish borasida tojikistonlik olimlardan A.Samoylovich, Z.Rajabov, I.S.Braginskiy¹⁸, B.G‘afurov, A.Maniyozov, Shakuriy Buxoriy (Muhammadjon Shukurov)¹⁹, Y.Boboyev, K.Ayniy, A.Sayfulloyev²⁰, N.B.Hotamov²¹, M.S.Imomov²², Jalol Ikromiy, Z.Mullojonova, Rahim Hoshim, Xolida Ayniy, S.Tabarov²³, M.Rajabiy va G.Dadaboyeva kabi adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi olimlarning xizmatlari kattadir²⁴.

1978-yilda Sadridin Ayniy tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab Toshkent va Samarqandda ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi²⁵. O‘zbekistonda S.Ayniy tavalludining 100 yillik yubileyi munosabati bilan mashhur davlat va jamoat arboblari, tarixchilar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar uning hayoti va ijodiga oid xotiralari, maqola, hikoya va she’rlarni nashr etishdi.

¹⁶ Хасанов М. Садриддин Айний ва Файзулла Хўжаев. – Тошкент, 1968. – 40 б; Айний чамани. – Тошкент, 1981. – Б. 23.

¹⁷ Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – Стр 9-11, 25, 57, 66-67, 73, 76, 93-95, 113-115, 159, 181.

¹⁸ Неъматова М., Раҳимов А. Иосиф Брагинский – аввалин айнийшинос // Садриддин Айний ва масъалаҳои рушди адабиёти навини тоҷик (мажмуаи мақолаҳои конференсияи ҷумҳуриявӣ илмӣ-назариявӣ. – Хўҷанд, ДДХ ба номи академик Бобочон Ғафуров, 6-7-уми апрели соли 2018). – Хўҷанд: 2018. – Саҳ. 231–235.

¹⁹ Шукуров М. Об идейных и художественных Воспоминаний С.Айни (“Ёддоштҳо”, части I и II): автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 1954. – 22.с.

²⁰ Самойлович А. Первое тайное общество младобухарцев // “Восток”. Журнал литературы, науки и искусства. Книга 1. – Петербург, 1922. – Стр. 97–99; Жамъияти мафҳии ҷавонбухориён, 1922 / Таҳияи С. Табаров // “Омузгор”, 1989, 26 декабрь; Раджабов З. Садриддин Айни – историк таджикского народа. – Сталинабад, 1961. – 86 с.; Брагинский И.С. Садриддин Айни. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1948; Проблемы творчество Садриддина Айни. – Душанбе: Ирфон, 1974. – 174 с.; Муҳаммаджон Шақурӣ Бухорӣ. Садриддин Айний. – Душанбе: Ирфон, 1987. – 224 с; Садри Бухоро. – Душанбе: Деваштич, 2005. – Саҳ. 11–202; Бобоев Ю.И. Садриддин Айний. – Душанбе, 1968. – 60 с.; Айний К. Жизнь Садриддина Айни. – Душанбе: Дониш, 1982. – 120.с.

²¹ Ҳотамов Н.Б. Инъикоси инқилоби Халқи Шӯравии Бухоро дар асарҳои Садриддина Айний. – Душанбе, 1980. – 69 с; Ҳотамов Н.Б. Инъикоси вазъи иҷтимоӣ ва сиёсати аморати Бухоро дар асарҳои таърихи С.Айний (аввали асри XX) // Сборник аспирантских работ кафедры истории ТГУ. – Душанбе, 1968. – Саҳ 69-83; Ҳотамов Н.Б. Воқеаи Колесов ва инъикоси он дар асарҳои таърихи Садриддин Айний // Сборник аспирантских работ кафедры истории ТГУ. – Душанбе, 1972. – Стр. 96–123.

²² Имомов М.С. Ҷаҳонбинӣ ва тафаккури Садриддин Айний. – Душанбе: Адиб, 2000. – 120.с.

²³ Табаров С. Роман “Рабы” С.Айни, как исторический роман. автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1949. – 23 с

²⁴ Раҳим Ҳошим. Якумин қиссаи инқилобии тоҷик “Одина” – асари С.Айний // “Раҳбари Дониш”, 1928. – № 6–9. – 7-9.саҳ.; Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. – Душанбе: Дониш, 1982. – 118 с; Табаров С. Мунзим. – Душанбе: Ирфон, 1991. – Саҳ 19; Мунзим – роҳбари ҷамияти ҷавонон ва раиси фирқаи ҷавонбухориён. – Душанбе, 2004. – Саҳ 36; Раҷабӣ М. Исломи ҷадидия ва инқилоб. – Душанбе: Дониш, 1997; Дадабоева Г. Роль журнала “Ойина” (“Зеркало”) в становлении таджикской журнальной периодики: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – Саҳ. 14.

²⁵ Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, ҳикоялар, шеърлар (Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Ҳасанов). – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 222.

Uchinchi guruhga mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr qilingan asarlar kiritilgan. Mustaqillik yillarida jadidchilik harakati mohiyatini hamda Sadridin Ayniy ilmiy merosini ochib berishda F.Qosimov²⁶, S.A’zamxo‘jayev²⁷, S.Inoyatov²⁸, Q.Rajabov²⁹, H.To‘rayev³⁰, L.Muhammadjonova³¹, Z.Abdirashidov³², K.Raxmonov³³, R.Tursunov³⁴, F.Bobojonova³⁵, D.Jamolova³⁶, F.Temirov³⁷ kabi tarixchi olimlar hamda N.Naimov³⁸, S.Aliyev³⁹, N.Karimov⁴⁰, B.Qosimov⁴¹, O.Safarov⁴², R.Vohidov⁴³, I.Haqqulov⁴⁴, U.Dolimov⁴⁵, H.Boltaboyev⁴⁶ va S.X.Toxirova⁴⁷ singari adabiyotshunoslarning asarlarini sanab o‘tish mumkin.

Qolaversa, 2003-yilda S.Ayniy tavalludining 125 yilligi munosabati bilan T.Mirzayev⁴⁸, B.Valixo‘jayev⁴⁹, R.Orzibekov⁵⁰ va A.Hayitmetovlar⁵¹ Sadridin

²⁶ Касымов Ф. Драма революции и правда истории. – Бухоро, 1996. – Стр. 56.

²⁷ Агзамхўжаев С., Улуғбекова З. “Ал-Ислох” журнали – Туркистондаги ислохотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915–1918). – Тошкент, 2021. – Б. 22.

²⁸ Иноятлов С. Бухорои шариф хўжалари: Усмон Хўжа, Отаулла Хўжаев. Файзулла Хўжаев аждодлари ва авлодлари шажараси. – Бухоро: Дурдона, 2022. – 179 б.

²⁹ Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917–1935 йиллар). – Тошкент: Ёш бухороликлар // “Бухоро мавжлари”. 2005. – № 2. – Б. 26-29; Ражабов Қ., Иноятлов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016; Ражабов Қ. Туркистон мухторияти тарихи. – Тошкент: Фан, 2023; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд (1900–1939). – Тошкент: Фан, 2024; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Иккинчи жилд (1939–2000). – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 97.

³⁰ Тўраев Ҳ. Садриддин Айнийнинг кам маълум бўлган тадқиқоти // “Бухоро мавжлари”. 2009 йил, – №2. – Б. 22-23; Тўраев Ҳ. Садриддин Айний ижодининг унутилган қирралари // “Бухоронома”. 2020 йил, 18 март. – Б.3-4.

³¹ Мухамеджонова Л. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908–1920 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1999. – Стр.17.

³² Абдирашидов З. Исмоил Гаспиринский ва Туркистонда жадидчилик. – Тошкент, 2008. – 107 б.

³³ Раҳмонов К. “Бухоро ахбори ва Озод Бухоро” газеталари – Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини ўрганиш манбаси: тар. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 18.

³⁴ Турсунов Р. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга миллий тараққийпарварларнинг қарашлари: тар. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

³⁵ Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими. – Тошкент: Адиб, 2014. – 128.б; Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б.16.

³⁶ Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б.9-11; Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) / Монография. – Тошкент, 2021 – Б.56.; Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари (XIX асрнинг охири – XX асрнинг биринчи чораги). – Тошкент: Фан, 2023. – Б. 7-8.

³⁷ Темиров Ф. Садриддин Айнийнинг Бухородаги жадидчилик ҳаракатида тутган ўрни ва ижтимоий фаолияти: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 6-7, 11-12.

³⁸ Наимов Н. Маърифатга бахшида умр. – Бухоро: Дурдона, 2018. – 236 б.

³⁹ Алиев С. Бухорода битилган байтлар (адабий мақолалар ва хотиралар). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 20–38.

⁴⁰ Каримов Н. С.Айний / Маънавият юлдузлари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 396–399.

⁴¹ Қосимов Бегали. Исмоилбек Ғаспралӣ (Таништириш йўлидаги бир тажриба). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. – Б. 13; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.

⁴² Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015. – Б. 136–180.

⁴³ Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 314 б.

⁴⁴ Ҳаққулов И. Айний абадияти // “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, 2003. – № 5. – Б. 4–13.

⁴⁵ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 67–71.

⁴⁶ Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент, 2007. – Б. 22, 24.

⁴⁷ Toxirova S.X. Sadriddin Ayniy asarlarining Yevropa adabiyotiga ta'siri va tarjiması: filol. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – B.15-18.

⁴⁸ Мирзаев Т. Садриддин Айний ижодини ўрганишнинг айрим масалаларига доир // “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, 2003. – № 5. – Б. 3-4.

Ayniy ilmiy merosiga bag'ishlab o'z maqolalarini e'lon qildilar. 2018-yilda S.Ayniy tavalludining 140 yilligi va 2019-yilda esa 141 yilligi keng nishonlanishi natijasida o'zbek hamda tojik tilida uning ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag'ishlab kitob nashr qilindi⁵². Sadriddin Ayniy ilmiy merosini chuqur tadqiq qilish maqsadida 2024-yildan boshlab Buxoro davlat universitetida "Ayniy vorislari"⁵³ nomidagi xalqaro elektron jurnal ham ta'sis etildi.

To'rtinchi guruhga MDH davlatlari va xorijda amalga oshirilgan Turkistonda jadidchilik-ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari, jadid namoyandalarning faoliyati, yangi usul maktablari haqida muhim ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar kiritilgan. Jumladan, MDHda A.X.Basirov⁵⁴, R.S.Xakimov⁵⁵, N.B.Xotamov⁵⁶, K.Rasulov⁵⁷, J.Jo'raboyev⁵⁸ va N.U.G'afforovlar⁵⁹ tomonidan Buxoro va Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga oid asarlar yozildi. S.Ayniyning ilmiy merosiga bag'ishlangan dissertatsiyalar yozildi⁶⁰. Xorij olimlaridan, jadidshunos Adib Xolid⁶¹, Sunsandane Chatterji⁶², Anita Sengupta⁶³, Marjan Madani Garakani, Hisao Komatsu⁶⁴,

⁴⁹ Валихўжаев Б. Устод Айний мероси // "Ўзбек тили ва адабиёти". – Б. 13–17.

⁵⁰ Орзибеков Р. Садриддин Айний ва XX аср ўзбек адабиёти // "Ўзбек тили ва адабиёти". – Б. 26–29.

⁵¹ Хайитметов А. Забардаст навоийшунос // "Ўзбек тили ва адабиёти". – Б. 18–21.

⁵² Самарқандда айнийшунослик / Айнийшиносӣ дар Самарқанд. Устод Садриддин Айнийнинг 141 йиллигига бағишланади. – Тошкент: Vneshinvestprom, 2019. – 232 б.

⁵³ Qarang: Ayniy vorislari (xalqaro elektron jurnal). 2024. – № 2 (5).

⁵⁴ Басыров А.Х. Джадидизм. – Уфа, 2009; Валиханова В.С. Джадидизм: возникновение и сущность // История национальных политических партий России. – Москва, 1997. – Стр. 206-213.

⁵⁵ Хакимов Р.С. Джадидизм (реформированный ислам). – Казань: Институт истории АН РТ, 2010. – 208 с.

⁵⁶ Хотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. – 119 с; Хотамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. – Душанбе, 2000. – 348 с.

⁵⁷ Расулов К. История культуры таджикского народа в первой четверти XX века: дисс. ... докт. ист. наук. – Душанбе, 2010. – Стр 23.

⁵⁸ Джурабаев Д.Х. Бухарский эмират во второй половины XVIII – первой половины XIX вв. В письменных источниках: дисс. ... докт. ист. наук. – Худжанд, 2013. – 24 с.

⁵⁹ Гафаров Н. Общественно-политическая деятельность Махмудходжи Бехбуди. – Душанбе, 1997. 32.б; Гафаров Н. По страницам газеты «Бухорои шариф». – Хужанд, 1999; Гафаров Н. Культурно-просветительская деятельность джадидов в Бухарском эмирате, начало XX века. – Душанбе, 1999; Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. – Хужанд, 2000; Гафаров Н.У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX – начале XX вв: автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Душанбе, 2013. – Стр 5–10.

⁶⁰ Имомов М.С. Художественное мышление и поэтика прозы Садриддина Айни: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2002. – Стр.18; Аслонова Н.Н. Литературно-эстетические взгляды Садриддина Айни: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2011; Солиев Х.У. Литературоведение и научная деятельность Садриддина Айни: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Душанбе, 2022; Хамидова М.М. "Таърихи инкилоби фикрӣ дар Бухоро"-и Садриддин Айний – хамчун сарчашмаи тарихӣ: автореферати номз. илм. тар. – Душанбе, 2022. – сах. 14-15.

⁶¹ Adeeb Khalid. Jadidism in Central Asia: Origins, Development, and Fate Under the Soviets April 10, 2018. // URL: <https://mesbar.org/jadidism-in-central-asia-origins-development-and-fate-under-the-soviets/>; The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press; Society and politics in Bukhara, 1868–1920. Central Asian Survey (2000), 19(3/4), - P.367–396; O'zbekiston tavalludi. Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademy Nashr, 2022. – 424 b.

⁶² Suchandana Chatterjee. Modernizing education in Central Asia: Limitation of jadidism in the emirate of Bukhara. Proceedings of the Indian History Congress. Vol. 61. Part Two: Millennium (2000-2001). – P 1125–1135 (11 pages) in featured, Papers. Published: Jun 26, 2022.

⁶³ Anita Sengupta. Imperatives of national territorial delimitation and the fate of Bukhara 1917–1924 // Central Asian Survey (2000), 19 (3/4). Vol. 19, No. 3-4, -P. 394-415.

⁶⁴ Komatsu Hisao. Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri [Turkism and Revolutionary Movements in Early 20th Century Central Asia]. – Ankara: Turhan Kitabevi. – 81 p.

I.Baldauf⁶⁵, A.Zenkovskiy, Dj.Uiller, E.Bekon, J.Bechka⁶⁶, H.Enkauz Karerlarning ilmiy ishlari, monografiya va risolalari⁶⁷, Mobin Shorish⁶⁸, R.Perri va Reychel Lehrning⁶⁹ ilmiy tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

Tokio (Yaponiya)da S.Ayniyning “Buxoro inqilobining tarixi”⁷⁰ asari arab imlosida o‘zbek tilida va yapon tilida bosilib, kitobxonlar hukmiga havola etildi. Iraj Bashiriy⁷¹ tadqiqotida, S.Ayniy yashagan tarixiy davr, uning ilmiy-ijodiy faoliyati va ilmiy merosi haqida, Buxorodagi ilmiy-adabiy muhit to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tgan. Quvaytlik tarixchi olim, Quvayt adiblar uyushmasi a‘zosi Nodir al-Vasirning Sadridin Ayniy merosiga bag‘ishlangan monografiyasi ham qilingan ilmiy izlanishlarning samarasi deyish mumkin.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sadridin Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni hamda ilmiy merosi bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqot ishi yaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sadridin Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Adibning hayoti va faoliyati, Turkistondagi jadidchilik va ma‘rifatparvarlik harakatida tutgan o‘rnini ko‘rsatib o‘tish;

S.Ayniy tadqiqotlarida davr ijtimoiy muammolari va tarixiy jarayonlarga munosabatini tahlil etish;

S.Ayniy asarlarida Buxoro va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixini yoritib berish;

Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va S.Ayniyning publitsistik faoliyatini o‘rganish;

S.Ayniyning Turkistonda fan, maorif va madaniyatning rivojiga qo‘shgan hissasini asoslab berish;

⁶⁵ Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt Des Islams, New Ser.New Series, Vol. 41, Issue 1 (Mar., 2001), pp. 72-88 (17 pages)

⁶⁶ Sadridin Aini of Modern Tajik Culture [Text] / J.Bechka. – Naples, 1980. – 111 p.

⁶⁷ Zenkovsky S.A. Pan-Turcizm and islam in Russia. – Cambridge-Massachusetts: Harward University Press, 1960. In great Britain by Oxford University. - 363.p. Bacon E. Central Asia under Russian Rule: A Study in Cultural Change. – New York, 1966 – 219.pp; Carrere d’Encausse H. Reformet Revolution chez les musulmans de l’Empire Russe. Boukhara. 1867–1924. – Paris, 1966. -1150-1152.p; Bennigsen A., and Lemerrier-Quellejay C. Islam in the Soviet Union. – New York: Praeger, 1967. – P.3-18; Allworth E. Central Asia. A Centry of Russian rule. – New York-London: Columbia University Press, 1967; Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – Cambridge, 1968. – P. 56.

⁶⁸ Shorish M. M. The Islamic revolution and education in Iran // Comparative Education Review. 1988. T. 32. – №1. – P. 58–75.

⁶⁹ The Sands of Oxus: Boyhood Reminiscences of Sadridin Aini. By Sadridin Aini; translated from the Tajik Persian with an Introduction by John R. Perry and Rachel Lehr. Bibliotheca Iranica: Literature Series no. 6. Costa Mesa. – Calif: Mazda Publishers, 1998. – P. 24–95.

⁷⁰ Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining ta‘rikhi (Nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo, Sharifa Tosheva). – Tokio, 2010. – 145 b.

⁷¹ Iraj Bashiri. The era of Sadridin Aini. – United States, 2017. – 26. p.

Olim ijodida Turkiston va Sharq allomalari ilmiy-adabiy merosiga munosabatni o'rganib chiqish;

Jahon olimlari, yozuvchi hamda adiblarining S.Ayniy ilmiy merosiga bergan baho va qarashlarini yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sadridin Ayniyning Turkistondagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rni va ilmiy merosi belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini Sadridin Ayniyning Turkiston ijtimoiy-madaniy hayoti va ilmiy merosiga oid ilmiy-badiiy, tarixiy asarlari, maqolalari, xotiralar, esdaliklar, jadidchilik harakatiga oid tadqiqotlari va ma'rifatparvarlik qarashlari hamda manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat va materiallar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida obyektivlik, tizimli tahlil, tarixiy-xronologik tahlil, fanlararo yondashuv va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sadridin Ayniyning Turkiston, Buxoro, Samarqand shaharlarining me'moriy obidalari, muqaddas qadamjolari, ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi o'zbek tilida yozgan ko'pgina tarixiy-tanqidiy maqolalari chuqur ilmiy mazmunga ega ekanligi, o'sha davrdagi jamiyatning ijtimoiy muammolari, ortiqcha dabdababozlik, ortiqcha xarajatlar haddan ziyod ko'payganligi, to'y-hasham va o'lim bilan bog'liq serchiquim urf-odatlar, olim o'z oilasi misolida bunday urf-odatlarni ado etish oddiy mehnatkashlar uchun naqadar og'ir bo'lganligi "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", "Qisqacha tarjimayi holim" va "Esdaliklar" kabi tarixiy-badiiy asarlari orqali asoslangan;

Jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek adabiyotidagi o'rni, ijtimoiy-madaniy hayotdagi faol ishtiroki, 1912–1915 va 1918–1930-yillarda Sadridin Ayniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilarning o'zbek publitsistikasi, matbuotchilik, noshirchilik, tarixiy qissa va hikoyalarga tamal toshi qo'yganligi, shakl va mazmun, g'oya uyg'unlashib, hikoya mustaqil janr sifatida namoyon bo'lganligi, S.Ayniy tomonidan "Buxoroyi sharif", "Turon" gazetalarida 1912–1913-yil oralig'ida 8 ta, "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Hurriyat", "Samarqand", "Buxoro axbori" gazetalarida 1918–1924-yillar oralig'ida 31 ta, 1919–1921-yillarda birgina "Shu'layi inqilob" ("Inqilob shu'lasini") jurnalida 67, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida esa 1925–1929-yillar oralig'ida 9 ta ijtimoiy-madaniy masalalarga oid maqola e'lon qilinganligi, ushbu gazeta va jurnallar Turkistonning ijtimoiy-madaniy masalalar targ'ibotida muhim vosita bo'lganligi aniqlangan;

Ma'rifatparvar adib Sadridin Ayniyning Turkistonda jamiyatni jaholat, qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, ta'lim tizimini isloh etishda, xalq maorifini rivojlantirish, yangi maktablar qurish, ularni zamonaviy o'quv qurollar, adabiyotlar bilan ta'minlashda ekanligi, nashriyot, matbuot ishlarini yo'lga qo'yish muhimligi, maorif ishining eng ahamiyatli tomonlaridan biri – muallimlar tayyorlash juda zarurligi, ularning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozimligi kabi dolzarb ahamiyatga ega teran ezgu g'oyalari, qarashlari va ilmga qo'shgan hissasi orqali XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida salmoqli o'rin egallaganligi dalillangan;

Sadriddin Ayniyning “Yetim” va “Qullar” tarixiy-badiiy asarlarida Turkiston xalqlarining muhojirlik qismati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari, davr ijtimoiy muammolari birinchilardan bo‘lib ko‘tarib chiqilgani, ushbu ijtimoiy masalalarni hal qilish xalq manfaati uchun naqadar zarur ekanligi, shuningdek, tarix, sharqshunoslik va adabiyotshunoslikka doir ko‘p sonli ilmiy-adabiy asarlari va Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zayniddin Vosifiy, Bedilning hayoti va faoliyatiga doir tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirgani uchun himoyasiz (dissertatsiya ishi himoya qilmay turib) doktorlik ilmiy darajasi berilgani isbotlangan;

Sadriddin Ayniyning ilmiy-ijodiy merosiga tegishli, haligacha ayrimlari ilmiy muomalada bo‘lmagan, hanuzgacha tanlangan “Asarlar”i to‘plamidan joy olmagan, kam o‘rganilgan XX asrning 20-30-yillaridagi tarix, tarixshunoslik, manbashunoslik (qo‘lyozma manbalar), Buxoro va Turkiston tarixi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari, ijtimoiy-madaniy jarayonlari, jadidchilik va ma‘rifatparvarlik harakatiga oid “Mir Arab imoratlari”, “Eski osorlar, Chil ustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh”, “Samarqand shahri”, “Tarixiy izoh”, “Tarixiy tas‘hih”, “Suvoqar yoki Jilvon rud” kabi asarlari tahlil etilib, bu kabi tadqiqotlarga bo‘lgan ilmiy zaruratning hamon mavjudligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat.

S.Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosi to‘g‘risidagi fikrlardan O‘zbekistonning XX asr birinchi yarmi davri tarixini hamda O‘zbekiston tarixi sahifalarini yangi materiallar bilan to‘ldirish va boyitish imkoni mavjudligi aniqlandi; O‘zbekistonning o‘rganilayotgan davr tarixiga bag‘ishlangan tarixiy adabiyotlar va manbalarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, fundamental adabiyotlar, davriy matbuot materiallari, xotiralar, kundaliklar, esdaliklar, maktublar, muzey va arxiv fondlaridagi manbalarga asoslanganligi, mavzuga doir xorijiy adabiyotlarning qiyosiy tahlil qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* ma‘rifatparvar adib, yozuvchi, jamoat arbobi, akademik S.Ayniyning ilmiy-ijodiy faoliyati, Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ilmiy-madaniy rivojlanishi, madaniy merosni tadqiq etish va o‘rganishga bag‘ishlangan maqsadli davlat dasturlari bajarilishiga, shuningdek, tarixiy, ijtimoiy-ma‘rifiy bilimlarni rivojlantirishga, yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. S.Ayniyning Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosi ilmiy tadqiqot ishiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Sadriddin Ayniyning Turkiston, Buxoro va Samarqand shaharlarining me‘moriy obidalari, muqaddas qadamjolari, ijtimoiy-madaniy hayotini aks

ettiruvchi o‘zbek tilida yozgan ko‘pgina tarixiy-tanqidiy maqolalari chuqur ilmiy mazmunga ega ekanligi, o‘sha davrdagi jamiyatning ijtimoiy muammolarini, ortiqcha dabdababozlik, ortiqcha xarajatlar haddan ziyod ko‘payganligi, to‘y-hasham va o‘lim bilan bog‘liq serchiqim urf-odatlar, olim o‘z oilasi misolida bunday urf-odatlarini ado etish oddiy mehnatkashlar uchun naqadar og‘ir bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan “Yangi O‘zbekiston: ma‘rifatli jamiyat” kabi loyiha va konsepsiyalarni amalga oshirishda, “Milliy qadriyatlar va ma‘naviy merosni asrab-avaylashni keng ommalashtirish” kabi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ma‘naviyat va Ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 10-apreldagi 134-sonli ma‘lumotnomasi*). Ilmiy tadqiqot ishida ilgari surilgan taklif, tavsiya va ilmiy xulosalar mamlakatimizda ma‘rifat va madaniyat yo‘nalishidagi faoliyatni tashkil etish hamda ma‘naviy-ma‘rifiy soha targ‘ibotchilari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Ma‘rifatparvar adib Sadridin Ayniyning Turkistonda jamiyatni jaholat, qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, ta‘lim tizimini isloh etishda, xalq maorifini rivojlantirish, yangi maktablar qurish, ularni zamonaviy o‘quv qurollar, adabiyotlar bilan ta‘minlashda ekanligi, nashriyot va matbuot ishlarini yo‘lga qo‘yish muhimligi, maorif ishining eng ahamiyatli tomonlaridan biri – muallimlar tayyorlash juda zarurligi, ularning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e‘tibor berish lozimligi kabi dolzarb ahamiyatga ega teran ezgu g‘oyalari, qarashlari ilmga qo‘shgan hissasi orqali XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida salmoqli o‘rin egallaganligi borasidagi ma‘lumotlaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasi tomonidan foydalanilgan (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 29-maydagi 06-31-841-sonli ma‘lumotnomasi*). Taqdim etilgan materiallar ko‘rsatuvlar mazmunini mukammallashtirishga, teletomoshabinlarni jadidchilik faoliyati borasidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qilgan.

Jadid ma‘rifatparvarlarining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, ijtimoiy-madaniy hayotdagi faol ishtiroki, 1912–1915 va 1918–1930-yillarda Sadridin Ayniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilar o‘zbek publitsistikasi, matbuotchilik, noshirchilik, tarixiy qissa va hikoyalarga tamal toshi qo‘yilganligi, shakl va mazmun, g‘oya uyg‘unlashib, hikoya mustaqil janr sifatida namoyon bo‘lganligi, S.Ayniy tomonidan “Buxoroyi sharif”, “Turon” gazetalarida 1912–1913-yil oralig‘ida 8 ta, “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Hurriyat”, “Samarqand”, “Buxoro axbori” gazetalarida 1918–1924-yillar oralig‘ida 31 ta, 1919–1921-yillarda birgina “Shu‘layi inqilob” (“Inqilob shu‘lasi”) jurnalida 67, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida esa 1925–1929-yillar oralig‘ida 9 ta ijtimoiy-madaniy masalalarga oid maqola e‘lon qilganligi, ushbu gazeta va jurnallar Turkistonning ijtimoiy-madaniy masalalar targ‘ibotida muhim vosita bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan 2022–2025-yillarda bajarilishi rejalashtirilgan 03-05-sonli “Jadid.uz” elektron platformasini yaratishda keng foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 2-*

iyundagi 3/1255-1364-sonli ma'lumotnomasi). Berilgan ma'lumotlar "Jadid.uz" elektron platformasini mazmunan boyitishga xizmat qildi;

Sadriiddin Ayniyning ilmiy-ijodiy merosiga tegishli, haligacha ayrimlari ilmiy muomalada bo'lmagan, hanuzgacha tanlangan "Asarlar"i to'plamidan joy olmagan, kam o'rganilgan XX asrning 20-30-yillaridagi tarix, tarixshunoslik, manbashunoslik (qo'lyozma manbalar), Buxoro va Turkiston tarixi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari, ijtimoiy-madaniy jarayonlari, jadidchilik-ma'rifatparvarlik harakatiga oid "Mir Arab imoratlari", "Eski osorlar, Chil ustun, Ko'ksaroy, Chinnixon va Ko'ktosh", "Samarqand shahri", "Tarixiy izoh", "Tarixiy tas'hih", "Suvoqar yoki Jilvon rud" kabi asarlari tahlil etilib, bu kabi tadqiqotlarga bo'lgan ilmiy zaruratning hamon mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlardan "Buxoro amirligi qozixon mahkamasi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XX asr boshlari)" nomli loyihani amalga oshirishda keng foydalanildi ("Buyuk ipak yo'li" Buxoro viloyat madaniy-ma'rifiy markazining 2023-yil 4-sentabrdagi 16-01-2023-sonli ma'lumotnomasi). Berilgan ma'lumotlar loyiha doirasida tayyorlangan "Buxoro amirligi qozixon mahkamasi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XX asr boshlari) nomli monografiyaning ilmiy mazmunini oshirishga xizmat qildi;

Sadriiddin Ayniyning "Yetim" va "Qullar" tarixiy-badiiy asarlarida Turkiston xalqlarining muhojirlik qismati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari, davr ijtimoiy muammolari birinchilardan bo'lib ko'tarib chiqilgani, ushbu ijtimoiy masalalarni hal qilish xalq manfaati uchun naqadar zarur ekanligi, shuningdek, tarix, sharqshunoslik va adabiyotshunoslikka doir ko'p sonli ilmiy-adabiy va Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zayniddin Vosifiy, Bedil hayoti va faoliyatiga doir tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirgani uchun himoyasiz (dissertatsiya ishi himoya qilmay turib) doktorlik ilmiy darajasi berilganiga oid ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan "Buxoro merosi" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan 35-06-15-sonli loyihada foydalanilgan ("Buxoro merosi" ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 11-martdagi 3-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan ma'lumotlar Sadriiddin Ayniy ilmiy merosini keng yoyishga va tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan loyiha hamda dasturlarni bajarishga keng xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjuman va konferensiyada, shu jumladan, 9 ta xalqaro konferensiya, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 13 ta maqola respublika va 3 ta maqola xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 239 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sadridin Ayniy – Turkistondagi ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakatining yirik siymosi”** deb nomlangan birinchi bobda S.Ayniyning hayoti va ijod yo‘li⁷², uning muhim jihatlari, Buxoro va Turkistondagi jadidchilik harakatida tutgan o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, islohotchilik va ma‘rifatparvarlik qarashlari kabi masalalar tahliliga bag‘ishlangan.

S.Ayniy⁷³ 1878-yil 15-aprelda Buxoro amirligining G‘ijduvon tumaniga qarashli Sektare qishlog‘ida Said Murodxo‘ja xonadonida tug‘ilgan. U boshlang‘ich ta‘limni qishloq masjid-maktabida oladi. S.Ayniyning o‘zi keyinchalik yozganidek, mumtoz adabiyotdan yaxshi xabardor bo‘lgan otasi Said Murodxo‘ja unga yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodiga qiziqish uyg‘otgan⁷⁴. Onasi Zevaroy ham farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullangan. Ular oilada to‘rt o‘g‘il farzand bo‘lib, Muhiddinxo‘ja, Sadridin (Ayniy), Sirojiddin va Kiromiddin bo‘lgan⁷⁵. Muallif hayoti va faoliyati uning **“Qisqacha tarjimayi holim”**⁷⁶, **“Esdaliklar”**⁷⁷, ma‘rifatparvarlik va jadidchilik faoliyati davri esa, **“Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”**⁷⁸ asarida va ayrim publitsistik maqolalarida atroflicha bayon etilgan.

S.Ayniy Buxoro madrasalarida tahsil olgan dastlabki yillarda (1890-1891) **“Sifliiy”**, **“Muhtojiy”** va **“Jununiy”** kabi turli taxalluslar bilan dastlabki she‘rlarini yozdi. 1896-yilda u ilk bor **“Ayniy”** taxallusi bilan ijod qila boshlaydi⁷⁹. 1907-yilga qadar Turkistonning ko‘pgina viloyatlarida, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda yangicha usuldagi maktablar – usuli jadid maktablari ochilgan edi. Bu

⁷² Sadridin Ayniyning hayoti va faoliyati haqida batafsil qarang: Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. (Краткий хронологический очерк). – Душанбе: Дониш, 1982. – Стр. 6-7; Брагинский И.С. Садриддин Айни. Очерк жизни и творчества. – Сталинобод: нашриёти Академияи РСС Тожикистон, 1954; Азизкулов Ж., Мулложоннова З. Феҳрасти асарҳои С.Айни ва адабиёти оид ба ӯ. (То охири соли 1961). – Душанбе, 1963; Мулложоннова З., Файзуллоев Н. Феҳрасти асарҳои С. Айни ва адабиёти оид ба ӯ (солҳои 1962–1976). Зери таҳрири М.Шукуров. – Душанбе: Дониш, 1978. – Саҳ. 25.

⁷³ Айний (тахаллуси; асл исми Садриддин Саидмуродзода). Ўзбекистон Миллий энциклопедияси (А ҳарфи). – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 241–243; Айний / Фалсафа. Қомусий луғат (А ҳарфи). Тузувчи ва масъул муҳаррир: ф.ф.д. Қиёмиддин Назаров. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 15; Alisher Navoiy ensiklopediyasi. 1-jild (A-H). – Toshkent, 2024. – B. 68–70.

⁷⁴ Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 томлик. 1-том. – Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1963. – Б. 5.

⁷⁵ Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – Душанбе: Дониш, 1982. – Стр. 10.

⁷⁶ Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 5-6.

⁷⁷ Айний С. Эсдаликлар. I–IV қисмлар / Асарлар. 8 томлик. 5–7 томлар. – Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1965–1967. – Б.32-33.

⁷⁸ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари марказий нашриёти, 1926. – Б.14.

⁷⁹ Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – Стр 28.

vaqtlarda Buxoroda faoliyat yuritayotgan tatarlar o'z bolalari uchun yangi usul maktablarini ochadi. Eski maktabning darslaridan qoniqmagan, o'qitish usuli buzilgan, dars mashg'ulotlari eskirgandan ayrim buxoroliklar o'z bolalarini tatar maktabiga o'qishga bera boshladilar. S.Ayniy 1907-yilda Buxorodagi Nizom Sobitovning⁸⁰ tatar maktabini borib ko'radi. U tatar maktabida mahalliy xalq farzandlariga darslarni tatar tilidan tarjima qilib berish ishi bilan qariyb olti oy shug'ullanadi⁸¹.

S.Ayniy Yosh buxoroliklar maxfiy jamiyati a'zosi sifatida Buxorodagi jadid maktablarini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlaridan biri edi⁸². S.Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida yozishicha, 1908-yil 23-oktabrda Buxoro shahrining Darvozayi Sallohxona guzarida joylashgan Mirzo Abdulvohid Munzim (Burhonov) uyida forsiy (tojik) tilida yangi usul maktabi ochiladi va unga Mirzo Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlanadi. Boy bolalarni pulli, kambag'al bolalarni bepul o'qitadi. "Bu maktabda dastlab qabul qilingan o'quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek Abdullabek o'g'li, uning xizmatkori Abdug'ani, Afzal va Akram Ahmad Maxdum Hamdiy o'g'li, Muhammadamin Saidjon maxdum o'g'li, Abduqayim Abdushukur o'g'li. Iydi qurbongacha, ikki oy muddatda o'quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi"⁸³.

S.Ayniy 1908–1909-yillar orasida "Yosh buxoroliklar" tomonidan tuzilgan "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi") yashirin jamiyatiga a'zo bo'ladi⁸⁴ va uning ishlarida faol ishtirok etadi⁸⁵. Yosh buxoroliklarning "Buxoroyi sharif shirkati" muassisligida S.Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan ikkita darsligi "Tartil ul-Qur'on"⁸⁶ ("Qur'on tartili"), "Zaruriyoti diniya"⁸⁷ ("Diniy zaruratlar") va "Tahsib us-sibyon"⁸⁸ ("Bolalar tarbiyasi") nomli darslik kitoblar birinchi marta 1909-yilda Orenburgda nashr etiladi⁸⁹. Ushbu kitoblar S.Ayniyning ma'rifatparvarlik va islohotchilik faoliyatining dastlabki mevalari edi⁹⁰.

S.Ayniyning mahalliy xalqni, yosh avlodni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashdagi xizmatlari kattadir. Yoshligida ilm olishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi uni Buxoro

⁸⁰ Nizom Sobitov (Sobitiy) – Buxoroga Rossiyadan ko'chib kelgan tatar oilalaridan birining farzandi bo'lib, madrasa tahsilini olgan. Buxoroda birinchi usuli jadida maktabini ochganlardan biri. 1918-yil butun oilasi bilan amirlik tomonidan vahshiyarlarcha o'ldirilgan. N.Sobitovning ismini abadiylashtirish uchun BXSR davrida 1-Buxoro dorilmuallimini uning nomiga qo'yilgan.

⁸¹ Холида Айни. Зиндагиномаи Садриддин Айни. Таржумаи Юнус Юсуфӣ. – Душанбе, 2017. – Саҳ. 48.

⁸² Раҳим Ҳошим. Айни ва Бухоро // "Маориф ва маданият". 1971, 17 июль, – № 86 (3477). – Саҳ. 4-5.

⁸³ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: халқлар марказий нашриёти, 1926. – Б. 28-29.

⁸⁴ Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – саҳ. 97-98.

⁸⁵ Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. (Краткий хронологический очерк). – Стр. 42.

⁸⁶ Айни С. Тартил ул-Қуръон. Таъби аввал. – Оренбург: Таъхонаи жариди "Вақт", 1909; Тартил ул-Қуръон, 1909 / Таҳияи Абдулҳайи Сайидзодаи Муҳаммадамин. – Душанбе: Сино, 1996. – 45 с.

⁸⁷ Айни С. Зарурийёти диний. Таълими имон. Таъби аввал. – Самарқанд: Матбааи Газаров, 1332. – 108 саҳ; Зарурийёти диний, 1914 / Таҳияи Абдулҳайи Сайидзодаи Муҳаммадамин. – Душанбе: Диловар – ДДМТ, 2000. – 225 саҳ.

⁸⁸ Айни С. Таҳсиб ус-сибён. Таъби аввал. – Самарқанд: «Новое Дело», 1328 (1910); Таҳсиб ус-сибён. Таъби дуввум. – Самарқанд: Матбааи Газаров, 1336 (1917); Таҳсиб ус-сибён, 1910 (таъби аввал) ва 1917 (таъби дуввум) / Таҳияи Соҳиб Табаров. – Душанбе, 1994. – 48 с.

⁸⁹ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 34; Таърихи инқилоби фикрӣ дар Бухоро. – Б. 42.

⁹⁰ Ганиев А. С. Айни дар бораи роли падару модарон оид ба тарбияи бачагон // "Мақтаби советӣ". – Сталинобод-Душанбе: 1960, – № 10. – Саҳ. 46–49; Таҳсиб ус-сибёни С. Айни ва моҳияти тарбиявию бадеи он // "Мақтаби советӣ". 1966, – № 11. – Саҳ. 18–21; Мирзозода Х. Аҳамияти эстетикӣ порчаҳои адабии китоби "Таҳсиб ус-сибён"-и Садриддин Айни // "Мақтаби советӣ". 1970, – № 1. – Саҳ. 40–44.

madrasalariga yetakladi. Lekin bu vaqtda Buxoro madrasalarida o'qitiladigan fanlardan qanoat qilmay, qanday bo'lmasin uni isloh etish, diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlarni o'rgatadigan yangi usul maktablarini ochishga bel bog'ladi. Madrasadagi eski dars ta'limi bilan xalq farzandlarini yetuk va Vatani uchun sodiq farzandlarni tarbiyalashga erishib bo'lmasligini tushunib yetdi. U keyinchalik Buxorodagi jadid maktablarini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlaridan biriga aylandi.

Ma'rifatparvar ziyolilarning ibratli hayot yo'llari, tarixiy qarashlarini zamon talablari asosida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'z davrida Turkistondagi jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan S.Ayniyning ma'naviyat-madaniyat va tarix fani taraqqiyoti hamda badiiy adabiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va kelajak avlodlarga o'rnak bo'luvchi xizmatlari juda ko'p.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, taraqqiyparvar adib S.Ayniy Turkistondagi Yosh buxoroliklar harakatida faol qatnashadi. S.Ayniy Yosh buxoroliklar partiyasining a'zosi sifatida o'zining islohot va inqilob haqidagi qarashlarida siyosiy to'ntarish orqali davlat tuzumini o'zgartiradigan inqilob tarafdori emas edi. Uning fikricha, siyosiy va ijtimoiy inqilob tadrijiy ravishda, ya'ni islohotlar o'tkazish orqali yuz bermog'i lozim. Buning uchun, avvalo, ommani ilm-u ma'rifat yordamida hurfikir va taraqqiyparvar qilish lozim, bunga erishish vositasi esa maktab va matbuotdir; shundan so'ng afkor ommaning tazyiqi va talabi bilan islohot o'z-o'zidan amalga oshadi, deb tushuntiradi. Eng asosiysi, S.Ayniy, bu davrda o'zining sa'y-harakatlari va ijodiy faoliyati bilan Turkistondagi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatida va Yosh buxoroliklar faoliyatida salmoqli o'rin tutdi.

Dissertatsiyaning **“Sadriiddin Ayniy – Turkiston tarixining tadqiqotchisi”** deb nomlangan ikkinchi bobda S.Ayniy tadqiqotlarida davr ijtimoiy muammolari va tarixiy jarayonlarga munosabat, mang'itlar sulolasining kelib chiqishi, davlat boshqaruvi tizimi, mahalliy xalqning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti, Turkiston va Buxoroda taraqqiyparvarlik, ma'rifatparvarlik, islohotchilik g'oyalarining tarqalishi, “Buxoroyi sharif shirkati”ning tashkil etilishi, 1912–1913-yillarda tojik tilida “Buxoroyi sharif” va o'zbek tilida “Turon” gazetalarining nashr etilishi, 1914-yilda “Ma'rifat kutubxonasi” va “Barakat shirkati”ning ochilishi kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan.

1883–1884-yillarda Turkiston ziyolilari “Tarjumon” gazetasi orqali yangi usul maktablaridan, jadidchilik va islohotchilik g'oyalaridan voqif bo'lishgan⁹¹. Zeroki, 1884-yilda “Tarjumon”ning 1000 ta obunachisidan 200 tasi Turkistondan bo'lgan. Buxoroda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishda tashqaridan keltirilgan gazeta va jurnallar ham ta'sir ko'rsatgan. Bokuda chiqadigan “Mullo Nasriddin” hajviy jurnali, Toshkent va Samarqandda chiqadigan “Al-Isloh” va “Oyina” jurnallari, Hindistondan “Hablul-matin” gazetasi, Misrda turk va fors

⁹¹ Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Саҳ. 25.

tilida nashr etilgan “Chehranoma”, “Parvarish” kabi jurnallar Buxoroga keltirib tarqatilgan⁹².

S.Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “1910-yillarda yoshlarning ahvoli”, “Maxfiy jamiyat”, “Maxfiy jamiyatning ta’qib etilishi”, “Urush yillarida yoshlarning ishlagan ishlari”, “Yoshlarning faoliyati va “Sho‘royi islom” jamiyati”, “1920-yil, yoshlarning oxirgi harakatlari”, “Yoshlarning nashriyoti” kabi bo‘limlarida Buxoro va Turkistonda jadidchilik va yangi usul maktablarining tarqalishi, matbuotchilikning yo‘lga qo‘yilishi, madrasa va maktablardagi ta’lim-tarbiya tizimini isloh etish va boshqa muhim masalalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Yosh buxoroliklar 1910–1917-yillarda, asosan, ma’rifatparvarlik ishlari, yangi usul maktablarini tashkil etish, ta’lim-tarbiya tizimini isloh etish uchun kurashgan bo‘lsalar, 1917-yilga kelib bu tashkilot siyosiy tuzga kiradi. Endi ularning asosiy maqsadlari mavjud bo‘lgan amirlik tuzumi doirasida, eskicha boshqaruv idorasida keng islohotlar o‘tkazish orqali hukumatda Yosh buxoroliklarning faol a’zolaridan mukammal assambleyani tuzish, shuningdek, mahalliy xalq ahvolini yaxshilash, soliqlarni kamaytirish, maktab va madrasa ta’limi tizimida jiddiy o‘zgartirishlar yasashdan iborat bo‘lgan. Yosh avlod va xalqning savodini chiqarish, ommaning ongiga ma’rifatparvarlik g‘oyalari singdirishda, avvalo, jadid maktablari va uning o‘qituvchilari asosiy rol o‘ynagan.

Ma’lumki, S.Ayniy ijodida ijtimoiy-madaniy, tarixiy jarayonlar va materiallar asosiy o‘rinni egallaydi. O‘sha davrdagi jamiyatning ijtimoiy muammolarini, ortiqcha dabdabozlik, ortiqcha xarajatlar haddan ziyod ko‘payganligi, to‘y-hasham va o‘lim bilan bog‘liq serchiqim urf-odatlar, olim o‘z oilasi misolida bunday urf-odatlarni ado etish oddiy mehnatkashlar uchun naqadar og‘ir bo‘lganligini “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Qisqacha tarjimayi holim” va “Esdaliklar” kabi tarixiy-badiiy asarlari orqali ochib bergan. Shuningdek, S.Ayniy o‘zining tarixiy asarlarida Buxoro tarixining eng murakkab davrlaridan biri – mamlakatda islohotchilik g‘oyalari va inqilobiy harakatlarning keng yoyilishi, ko‘p asrlar davomida amalda bo‘lgan davlat tuzumining tubdan o‘zgarishi voqealarini o‘z ko‘rgan-kechirganlari asosida qalamga olgan. Shu bois bu asarlarni chetlab o‘tib, o‘sha davr tarixini yoritish mushkul.

Ma’rifatparvar olim, Buxoro tarixi tadqiqotchisi Sadridin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Qullar”, “Qisqacha tarjimayi holim” kabi qissa va romanlari muayyan tarixiy voqealarga qaratilganligi, tarixiy jarayonlar tahliliga yo‘naltirilganligi bilan alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, adib bu kitoblarini “tarixiy ocherklar” deb atagan. Binobarin, S.Ayniyning shunday tarixiy tadqiqotlaridan biri “Ta’rix amironi mang‘itdiy Buxoro” (“Buxoro mang‘it amirlarining tarixi”) asaridir.

Shuni ham ta’kidlash o‘rinliki, mang‘itlar sulolasi tarixining tadqiqotchilari bo‘lgan Ahmad Donish, Mirzo Somiy, Po‘lat Soliyev va Abdurauf Fitratlar o‘z asarlarida mang‘it hukmdorlari davri tarixini, asosan, salbiy baholashgan. Jumladan, ular mang‘it amirlarning layoqatsizligi, shaxsiy manfaatini o‘ylaydigan va tajribasiz ekanliklari haqida yozgan. S.Ayniyning asari ham bundan mustasno

⁹² Айнӣ С. Таърихи инқилоби фикрӣ дар Бухоро / Куллиёт. 16 ҷилд. Ҷ.14. – Душанбе: Матбуот, 2005; Таърихи инқилоби Бухоро. – Саҳ. 32.

emas, albatta. Tarixchi olim S.Ayniy “Buxoro mang‘it amirlari tarixi” asarida ham mang‘it amirlari shaxsiga asosan salbiy fikrlarni bildirib o‘tgan. Bunday munosabatni Sayid Olimxon shaxsi va uning hukmronlik davri misolida ham ko‘rish mumkin. Buning sababi, birinchidan, jadidchilik harakatiga amirning yo‘l bermagani, ikkinchidan, Yosh buxoroliklarning islohotchilik talabini qondirmagani, uchinchidan, yoshlarning aksariyati uning olib borgan siyosati oqibatida qatag‘onga uchraganligini aytish mumkin.

Mang‘it amirlari o‘z davrida mamlakat ravnaqi, rivojlanishi yo‘lida, davlat boshqaruvida, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-siyosiy sohada salmoqli ishlar qilgan va ko‘pgina xayrli ishlarni amalga oshirgan. Masalan, Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida amirlikda shakllana boshlagan jadidchilik, ma‘rifatparvarlik g‘oyalariga xayrixoh bo‘lgan, yangi usul maktablarini, uning afzalliklarini yaxshi bilgan va o‘z o‘rnida qo‘llab-quvvatlagan. Amir Sayid Olimxon hukmronligi davrida esa Buxoroda Olimxon madrasasi qurilgan, 1915–1918-yillarda Buxoro atrofidagi Sitorayi Mohi Xosa saroyini qurish yakunlandi.

Shu bilan birga, Buxoro amirligi tarixida 1918–1920-yillarda yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy ishlar, Yosh buxoroliklarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Rossiyada yuz bergan Oktabr inqilobi va uning Buxoroga ta‘siri, 1918-yilgi voqealar tarixining ajralmas qismi bo‘lgan “Kolesov voqealari”, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va boshqa muhim masalalar to‘g‘risida S.Ayniy o‘zining “Ta‘rixii amironi mang‘itiiyayi Buxoro”⁹³, (“Buxoro mang‘it amirlari tarixi”) “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”⁹⁴, “Qisqacha tarjimayi holim”⁹⁵ va “Esdaliklar”⁹⁶ kabi asarlarida va ayrim maqolalarida tasvirlab o‘tgan.

Dissertatsiyaning “**Sadriddin Ayniyniing Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o‘rni**” deb nomlangan uchinchi bobda Turkistonda matbuotchilikning vujudga kelishi, uning ijtimoiy-madaniy hayotga ta‘siri, S.Ayniyniing publitsistik va nashriyotchilik faoliyati, olimning Turkistonda fan, maorif va madaniyatning rivojiga qo‘shgan hissasi haqidagi ma‘lumotlar tadqiq qilinadi.

Turkiston matbuoti 1905-yildan keyin tarixan qisqa muddat ichida katta bosqichni bosib o‘tdi, natijada, ko‘plab gazeta va jurnallar nashr etildi. Abdulla Avloniy “Burungi o‘zbek vaqtlil matbuotining tarixi” maqolasida 1905–1917-yillar oralig‘ida o‘lkada o‘zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal nashr etilganini xabar beradi⁹⁷. 1927-yilda “O‘zbek vaqtlil matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)” tadqiqotini chop ettirgan Ziyo Saidning aniqlashicha, o‘tgan oraliq davrda 45 ta gazeta, 36 ta jurnal dunyo yuzini ko‘rgan⁹⁸.

Jumladan, “Tarjumon” (Bog‘chasaroy, 1883–1917), “Buxoroyi sharif” (Yangi Buxoro, 1912–1913), “Qutulish” (Toshkent, 1919), “Mehnatkashlar tovushi”

⁹³ Айний С. Таърихи амирони манғитиияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923. – Саҳ. 98–102.

⁹⁴ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти 1926. – Б.15–16.

⁹⁵ Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар 8 томлик. 1-т. – Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б.93–95.

⁹⁶ Айний С. Эсдалиқлар. I–IV қисмлар / Асарлар. 8 томлик. 5–7 томлар. – Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1965–1967.

⁹⁷ Abdulla Avloniy. Burungi o‘zbek vaqtlil matbuotining tarixi // “Turkiston”, 1924-yil 24-iyun. – Б. 4.

⁹⁸ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870–1927) / Танланган асарлар (Тўпловчи Ш.Турдиев). – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 113–116.

(Toshkent, 1919–1921), “Buxoro axbori” (Eski Buxoro, 1920–1923), “Turkiston” (Toshkent, 1922), “Zarafshon” (Toshkent, 1922–1923) kabi gazetalar, “Oyina” (Samarqand, 1913–1915) “Al-Isloh”⁹⁹ (Toshkent, 1915–1918), “Bolalar dunyosi”¹⁰⁰, “Shu’layi inqilob” (Samarqand; 1919–1921), “Uchqun” (Toshkent, 1920), “Maorif va o’qitg’uchi” (Toshkent; 1923–1929) jurnallarda mavzu tadqiqotiga oid muhim materiallar mavjud¹⁰¹. Ushbu gazeta va jurnal sahifalarida S.Ayniy Turkistonning ijtimoiy-madaniy va siyosiy-iqtisodiy hayotiga daxldor turli mavzularda publitsistik maqolalari bilan faol qatnashadi.

1912-yilning 11-martidan 1913-yil 12-yanvargacha 153 ta soni chiqqan “Buxoroyi sharif” gazetasi faoliyatida S.Ayniy faol ishtirok etdi¹⁰². Behbudiyning tashabbusi va rahbarligida chiqqan “Oyina”¹⁰³ jurnalida ham turli mavzudagi maqola va she’rlari bilan qatnashib turdi¹⁰⁴. 1918–1920-yillarda S.Ayniy Samarqandda, asosan, ta’lim-tarbiya ishlari bilan mashg’ul bo’ldi. Shuningdek, u “inqilob”ni madh etuvchi va eski tuzumni tanqid ostiga oluvchi badiiy-tarixiy publitsistik maqolalar va she’rlar yozishga zo’r beradi. Ularning aksariyati Samarqandda chiqadigan “Shu’layi inqilob” (“Inqilob shu’lasi”), “Bolalar yo’ldoshi”¹⁰⁵, “Tayoq” jurnallari va “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Hurriyat” gazetalarida¹⁰⁶ nashr etiladi.

S.Ayniy Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)ning doimiy matbuot organi bo’lgan “Buxoro axbori” gazetasida e’lon qilgan tarixiy-badiiy maqolalari¹⁰⁷ ham muhim ahamiyatga egadir. BXSR hukumatining o’zbek tilidagi yagona, doimiy matbuot organi bo’lgan “Buxoro axbori” (keyinchalik “Ozod Buxoro”. – *F.T.*) gazetasida S.Ayniyning 1923-yilda “Ko’rsunlar va eshitsunlar”¹⁰⁸, “Sho’rolar hukumati muomalasi”¹⁰⁹, “Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat”¹¹⁰ nomidagi maqolalarini e’lon qilgan. O’sha davrdagi

⁹⁹ Айни С. Мавсими барфу фасли зимистон // “Ал-Ислох”, 1917 йил 1 январь; Shuningdek, qarang: Агзамхўжаев С., Улуғбекова З. “Ал-Ислох” журнали – Туркистондаги ислохотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915–1918). – Тошкент, 2021. – Б.84.

¹⁰⁰ Ayniy S. Navoiy bolalari uchun // “Bolalar dunyosi”. 1921-yil, – № 2. – В 6.

¹⁰¹ Bu haqda batafsil qarang: Hoji Muin. Samarqand matbuotining tarixi // “Zarafshon”. 1923-yil, 5-may; Abdulla Avloniy. Burung’i o’zbek vaqtli matbuotining tarixi // “Turkiston”. 1924-yil, 24-iyun.

¹⁰² Айни С. Масти // “Бухорои шариф”. 1912 йил, – № 17, пайшанба, 30 март; Мактуб аз Бухорои шариф. – №20, сешанба, 3 апрель; Сайли Наврўз дар Бухоро. – № 21, чоршанба, 4 апрель, – № 8, сешанба, 20 март.

¹⁰³ Qarang: Роль журнала “Ойна” (“Зеркало”) в становлении таджикской журнальной периодики: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017.

¹⁰⁴ Айни С. Нидо ба чавонон // “Ойна”. 1913, – № 3; Har bir millat o’z tili ila faxr etar. 1913, – № 3; Moziy va hol; 1913, – № 3. – В. 79; Nasrat. 1913, – № 5; Na o’ldi, yo Rab. 1913. – № 7; Марсия ба Мирзо Сирожддин Ҳакими Бухорой. 1914, – № 14. – Б. 241.

¹⁰⁵ Ayniy S. Amir Temur binolarindan Bibixonim xarobasi ila musohaba // “Bolalar yo’ldoshi”. 1919, – №2-3, 23-may. – В. 3.

¹⁰⁶ Ayniy S. Musulmon maktablari va programma // “Mehnatkashlar tovushi”. 1919-yil, 24-dekabr; Toshkent xotiralari // “Mehnatkashlar tovushi”. 1919-yil, 14–20-sentabr; Ziyoyi ilm // “Mehnatkashlar tovushi”. 1919-yil, 28-dekabr. – № 127; Mahmudxo’ja hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi”. 1920-yil, 8-aprel. Imzo: “Buxorodan bir kishi”. Buxorodagi inqilobiy harakatining qisqacha tarixi // “Mehnatkashlar tovushi”. 1920-yil, 18-noyabr; Mufti Mahmudxo’ja Behbudiy va rafiqlarining olindi o’chlari // “Mehnatkashlar tovushi”. 1920-yil, 8-aprel. – № 152; Xorijdagi talabalarimiz qanday ahvolda // “Zarafshon”. 1923, 6-dekabr.

¹⁰⁷ Ayniy S. Yashasin Sovet Buxorosi // “Buxoro axbori”. 1920-yil, 9-sentabr; Ko’rsunlar va eshitsunlar. 1923-yil, 5-avgust. – № 210; Sho’rolar hukumati muomalasi. 1923-yil, 8-avgust. – № 211; Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat. 1923-yil, 21-sentabr. – № 214; Mufti Mahmudxo’ja Behbudiy va rafiqlarining o’chlari olindi. 1923-yil, 3-oktabr. – № 209. – Б. 9-10.

¹⁰⁸ Ayniy S. Ko’rsunlar va eshitsunlar // “Buxoro axbori”, 1923-yil, 5-avgust. – № 210.

¹⁰⁹ Ayniy S. Sho’rolar hukumati muomalasi // “Buxoro axbori”, 1923-yil, 8-avgust. – № 214.

¹¹⁰ Ayniy S. Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat // “Buxoro axbori”. 1923-yil, 21-avgust. – № 214.

ijtimoiy-ma'rifiy va adabiy jurnallardan bo'lgan arab imlosida, o'zbek tilida chiqadigan "Maorif va o'qitg'uchi"¹¹¹ jurnalida ham S.Ayniy o'zining tarixiy, ilmiy va adabiy yo'nalishdagi bir qancha maqolalari bilan ushbu jurnalning sahifalarini boyitgan.

Buxorodagi 1917-yil aprel voqealaridan keyin Samarqandga ko'chib o'tgan S.Ayniy bu yerda Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrizo Alizoda, Vadud Mahmud, Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy va Abduqodir Shakuriy kabi o'z davrining taniqli ma'rifatparvarlari va ziyolilari bilan yaqindan tanishadi. Shundan keyin zullisonayn adibning 36 yillik (1917–1954-yillar) hayotining asosiy qismi Samarqand shahrida kechdi. Adib 1917-yil 3-iyunda Samarqandga ko'chib kelgandan keyin birmuncha vaqt do'stlarinikida, Samarqandning mashhur, birinchi pedagoglaridan Abduqodir Shakuriy va Ismatulla Rahmatullayevlarning xonadonida yashaydi, keyinroq do'stlari uni jadid Vadud Mahmudning singlisi Salohatbegimga uylantirishadi¹¹².

1918-yil oktabridan 1919-yilgacha S.Ayniy Samarqandning Qo'sshavz guzaridagi maktabda tojik tili va adabiyoti hamda o'zbek tilidan dars beradi. Bu davrda milliy maktablar xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlang'ich va yetti yillik maktablar uchun yangi rejalar, o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. 1918–1922-yillarda o'zbek tilida 28 xil nomda tarjima qilingan o'quv adabiyotlar, 1921–1922-yillarda 720 650 nusxada darslik va o'quv qo'llanmalar, shulardan o'zbek tilida 32 xil nomdagi darslik va o'quv qo'llanmalar 282 050 nusxada chiqarildi.

Bu davrda O'zbekistonda, jumladan, Samarqandda ma'rifatparvar adib va yozuvchi S.Ayniy o'zbek va tojik maktablarini rivojlantirishda katta rol o'ynadi. 1919-1920-yillarda Samarqandda xalq maorifi bo'limining instruktoriga bo'lib ishlaydi, darsliklar va "Bolalar yo'ldoshi" degan bolalar jurnali chiqarib turadi¹¹³. 1920-yilda Samarqandda 100 o'quvchisi bo'lgan Maorif instituti ishlay boshladi. Bu institut pedagoglar va boshqa sohalardagi mutaxassislar tayyorlashda katta rol o'ynaydi. 1922-yildan 1926-yilgacha Samarqandda O'zbekiston maorif institutiga rahbarlik qilgan S.Ayniyning do'sti Ismatulla Rahmatullayev maorif, ta'lim-tarbiya tizimida S.Ayniy bilan hamfikir bo'lib yaqin aloqada bo'ladi.

1921–1923-yillarda S.Ayniy Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Samarqanddagi konsulxonasiga maslahatchi sifatida ishlaydi¹¹⁴. Bu yerda u matbuotchilik, tarjimonlik, muharrirlik va adabiy ijodiyot bilan shug'ullanishni davom ettiradi. Shuningdek, u nashriyot va tahrir ishlarida ham faol ishtirok etib, o'zining inqilobiy ruhdagi she'rlarini, alohida mustaqil yirik asarlar ham yaratadi, kitob shaklida BXSР Maorif nozirligi hisobidan nashr ettiradi¹¹⁵.

1923-yilda BXSРning Samarqanddagi konsulxonasi yopilgach, S.Ayniy o'sha yilning oxirida Samarqanddagi Buxgostorg (Buxoro savdo uyi tashkiloti)ga mudir qilib tayinlanadi. S.Ayniy bu vazifada ishlashni rad qiladi. "Lekin Buxoroning savdo ishlari boshlig'i odam topilishiga qadar vaqtincha ishlab

¹¹¹ Bu haqda batafsil qarang: Соатова Г. "Маориф ва ўқитгучи" журнали – адабий манба сифатида // "ЎЗМУ хабарлари", 2021 йил 1/5. – Б. 280–282.

¹¹² Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. – Душанбе: Дониш, 1982. – С. 53-54.

¹¹³ Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том (Масъул муҳаррир: И.М.Мўминов). – Тошкент, 1970. – Б. 82-83.

¹¹⁴ Айний С. Қисқача таржимаи холим / Асарлар. 8 томлик. 1-т. – Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б. 99.

¹¹⁵ Айний С. Мажмуаи ашъори инқилобийи форсий (тоҷикӣ). Бухоро халқ маориф назорати, 1923. – 32 с.

turishga ko'ndirdi. Biroq, bu "vaqtincha" ish va mening mudirlik nomim 1924-yilning boshidan 1925-yilning boshiga qadar davom etdi"¹¹⁶, – deb yozgan edi olim. "O'rta Osiyo respublikalari milliy chegaralanishdan keyin Samarqand Buxgostorgi idorasi O'zbekiston hukumati ixtiyoriga o'tdi va meni yana mudir qilib tayinlashdi. Ammo men Samarqand viloyat Komitetiga ariza berib, bu ishdan ozod bo'ldim va tamomiga adabiy ishga berilib ketdim"¹¹⁷.

1943-yil noyabr oyida O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tashkil etilib, S.Ayniy akademiyaning faxriy a'zosi etib saylandi¹¹⁸. 1951-yilda Tojikiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, S.Ayniy uning birinchi prezidenti etib saylandi¹¹⁹. Sadriddin Ayniy 1954-yil 15-iyulda Stalinobod (hozirgi Dushanbe) shahrida vafot etadi va shu yerda dafn etiladi.

Dissertatsiyaning "**Sadriddin Ayniy ilmiy va adabiy merosining dunyoviy ahamiyati**" deb nomlangan oxirgi to'rtinchi bobida S.Ayniyning ilmiy merosi, ilmiy-ijodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari, uning ilmiy-amaliy ahamiyati, olim ijodida Turkiston va Sharq mutafakkirlari, ma'rifatparvarlari ilmiy-adabiy merosining tilga olinishi va S.Ayniyning jahon tan olgan olim va adib ekanligi kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan.

S.Ayniy o'zining mingga yaqin katta-kichik asarlarini o'zbek va tojik tillarida yozdi. Uning ijodiy yo'nalishida publitsistika, hajviya, she'riyat, topografiya, toponimika, san'at, madaniyat, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, sharqshunoslik, romanchilik va tarjimonlik kabi ko'plab janrlar asosiy o'rinni egallaydi. Yozuvchining "Qisqacha tarjimai holim", "Esdaliklar", "Eski maktab" singari qissalari, "Buxoro jallodlari", "Odina", "Sudxo'ring o'limi", "Yetim" va "Muqanna isyoni" kabi asarlari tarixiy materiallar asosida yozilgan. S.Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. Yozuvchining 1940-yilda yozgan "Yetim" qissasida 1920-1930-yillardagi tarixiy voqelik qalamga olingan. S.Ayniy ikkinchi jahon urushidan avvalgi besh yilliklar davrida "Qullar" tarixiy romanini yaratdi. Asar 1934-yili o'zbek tilida, 1935-yilda tojik tilida va 1950-yilda rus tilida nashr etiladi.

Olim 1917-yilga qadar bo'lgan davrda kichik-kichik tarixiy hikoyalar, ocherklar va maqolalar yozdi. Bu maqolalar keyinchalik, katta tarixiy tadqiqotlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. S.Ayniy 1930–1935-yillar davomida "Buxoro amirlari va xotin-qizlar", "Amir Muzaffar", "Kenagasxonim", "Latifa", "Mashhur Mirak", "Amir Olimxon qochishda", "Avliyoqulibek", "Avliyoqulibek amirni qoziga olib bordi" kabi katta-kichik hikoyalar yaratdi. "Tarixiy tas'hih", "Tarixiy izoh", "Samarqand shahri", "Eski osorlar Chil ustun, Ko'ksaroy, Chinnixona va Ko'ktosh", "Qutbi chahordahumning ko'rinishi", "Suvoqar yoki Jilvon rud" va "Turk qomuschisi" kabi maqolalari Turkiston tarixi, shuningdek, O'zbekiston tarixining o'rganilmagan sahifalari haqida ma'lumotlar beradi.

S.Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi"ga doir asarining ko'p qismini 1918-1919-yillarda Samarqandda tojik tilida yozadi. Asar "Ta'rix inqilobi fikri

¹¹⁶ Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 томлик. 1-т. – Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б. 100.

¹¹⁷ Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 томлик. 1-т. – Б. 101.

¹¹⁸ Брагинский И.С. Садриддин Айни очерк жизни и творчества. – Стр. 78.

¹¹⁹ Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. – Стр. 87-88.

dar Buxoro”¹²⁰ (“Buxoroda fikriy inqilob tarixi”) deb nomlandi. Biroq, Buxoro inqilobidan keyin ushbu tojikcha asarning qo‘lyozmasi yo‘qoladi. Asar “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”¹²¹ nomi ostida davlat arbobi Nazir To‘raqulov so‘zboshisi bilan Moskvada, arab imlosida, o‘zbek tilida nashr etildi. Bu asar 2003-yili Tehronda asl yozuvda, 2005-yilda Dushanbeda kirill alifbosida chop etildi. 2007-yilda esa qo‘lyozmaning faksimile nashri Dushanbeda dunyo yuzini ko‘rdi¹²². Tokio (Yaponiya)da S.Ayniyning “Buxoro inqilobining tarixi”¹²³ asari arab imlosida bosildi.

S.Ayniy 1926–1933-yillarda Samarqanddagi Tojikiston davlat nashriyotiga adabiy xodim bo‘lib ishlagan yillarda mahalliy kadrlar yetishmas, adabiy xodimlar ozchilikni tashkil etar edi. Olim bu yerda ko‘plab asarlarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. Jumladan, u G‘arb yozuvchisi Ferdinand Dyushenning “Hilol” (“Yangi chiqqan oy”) asarini tamoman qayta ishlab, o‘zgacha bir badiiy asar tarzida “Qamar” nomi bilan nashr ettiradi¹²⁴. Publisist yozuvchi M.Bullening “Inqilobiy kurashlarda xotin-qizlar” asarini tarjima qiladi. Viktor Gyugoning “Sehri saroy” asarini o‘zbek tilida nashr ettirdi¹²⁵. Olim o‘zining “Childuxtaron”, “Romitan”, “Sug‘d”, “Sug‘diyona”, “Maroqand”, “Samarqand”¹²⁶, “Registon”¹²⁷, “Jilvon rud”¹²⁸ nomli maqolalarida Turkistonning ko‘plab joy nomlari (toponimlar) haqidagi turli ma’lumotlarni keltiradi¹²⁹.

Adibning ikkinchi prozaik asari – “Odina yoki bir kambag‘al tojikning sarguzashti”¹³⁰ 1924–1926-yillarda yozilgan bo‘lib, uning ba‘zi parchalari o‘sha vaqtdayoq “Ovozi tojik” gazetasida bosilib chiqqan. S.Ayniyning yirik ilmiy-adabiy tadqiqoti bo‘lgan “Namunayi adabiyoti tojik”¹³¹ (“Tojik adabiyoti namunalari”) asari uch qismdan iborat bo‘lib, 1926-yil Moskvada, arab imlosida tojik tilida nashr etildi. S.Ayniy ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri roman janridagi “Doxunda”¹³² kitobidir.

S.Ayniyning ilmiy-ijodiy merosida Turkiston mutafakkirlari, allomalari, ma‘rifatparvarlarining ijodi, hayoti va faoliyati muhim o‘rinni egallaydi. Uning “Shayx ur-raisa Abu Ali ibn Sino”, “Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy”, “Kamol Xo‘jandiy”, “Ustod Ro‘dakiy”, “Alisher Navoiy”, “Vosifiy va uning “Badoye‘ ul-

¹²⁰ Qarang: Xamidova M.M. “Ta‘rixii inqilobi fikriy dar Buxoro”-i Sadriddin Ayni – hamchun sarqashmaii ta‘rixii: diss. ... nomzodi ilmhoii ta‘rix. – Dushanbe, 2022. – Saq. 15-16.

¹²¹ Aynii S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva: xalqlar markazii nashriyati, 1926.

¹²² Aynii S. Ta‘rixii inqilobi fikriy dar Buxoro. Nashr: aksi nusxai asl bo xatli muallif / Kulliyat. Cildi 15. – Dushanbe, 2007.

¹²³ Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining ta‘rikhi (Nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo, Sharifa Tosheva). – Tokio, 2010. – 145 b.

¹²⁴ Дюшен Фердинанд. Қамар. Роман (С.Айний таржимаси). – Самарқанд, 1928 (Qarang: Брагинский И.С. Жизнь и творчество Садриддин Айна. – Москва, 1959. – С. 102-103).

¹²⁵ Турдиев Ш. Айний ва адабий алоқалар / Айний замондошлари хотирасида. – Тошкент, 1978. – Б. 171.

¹²⁶ Аунуу S. Samarqand shahri // “Maorif va o‘qitg‘uchi”. 1928-yil, – № 10. – B. 48–50.

¹²⁷ Аунуу S. Samarqand shahri // “Maorif va o‘qitg‘uchi”. 1928-yil, – № 10. – B. 48–50; Eski osorlar, Chil ustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh. 1926-yil, – № 7-8. – B. 28-29.

¹²⁸ Аунуу S. Suvoqar yoki Jilvon rud // “Maorif va o‘qitg‘uchi”. 1927-yil, – № 1-2. – B. 32-33.

¹²⁹ Xasanov M. Айний чамани. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нashриyи, 1981. – Б. 58.

¹³⁰ Айний С. Одина ёки бир камбағал тожикнинг саргузашти (Истибдод хотираларидан). – Тошкент: Ўздавнашр, 1931.

¹³¹ Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Москва: Чопхонаи нashриyи марказии халқии Жамохири Шўравии Сўсийлисти, 1926.

¹³² Айний С. Дохунда. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956. – 164 б.

vaqoye” asari haqida”, “Mirzo Abdulqodir Bedil” kabi ilmiy-adabiy maqolalarni¹³³ kiritish mumkin. Shuningdek, uning Alisher Navoiy, Bedil, Sadr Ziyo, Ahmad Donish, Afzal Maxdum Pirmastiy, Shohin, Hayrat, Hoji Azim Sha’riy, Abdullaxoja Abdiy, Mirza Somiy, Muqimiy, Furqat, Nodirabegim, Mirsiddiq Hashmat Buxoriy, Rahmatulloh Vozeh, Hoji Ne’matullo Muhtaram, Uvaysiy, Fitrat va boshqa ko‘plab mutafakkir olimlar, ma’rifatparvar adiblar faoliyati haqidagi ma’lumotlar ham alohida ahamiyatga molikdir. S.Ayniyning memuar xarakterdagi “Buxoro”¹³⁴ nomi bilan xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan “Esdaliklar”¹³⁵ (1949–1954) asari adib ijodida alohida o‘rin tutadi.

Zullisonayn san’atkor sifatida iste’dodini namoyon eta olgan S.Ayniyning o‘tgan asrda dunyo tan oldi. Shu boisdan, 1962-yilda Qohirada bo‘lib o‘tgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining Xalqaro kongressida S.Ayniy nomi hind Robindranath Thokur, xitoy Lu Sin va arab Toho Husaynlar qatorida tilga olindi¹³⁶. Bundan-da e’tiborlisi, adib tavalludining 100 yilligi jahon miqyosida keng nishonlangan edi¹³⁷.

XX asrda Markaziy Osiyo adiblari orasida Yevropa¹³⁸ ahli kashf etgan adiblarning dastlabkisi Buxoro farzandi S.Ayniy bo‘ldi. Buning isbotini esa Yevropada nom qozongan mashhur yozuvchilarning olim va jamoat arbobi S.Ayniy asarlarini o‘z tillariga tarjima qilingani misolida ko‘rish mumkin. Jumladan, taniqli fransuz alibi Lui Aragon tomonidan “Sudxo‘rning o‘limi” hamda “Esdaliklar” asarlari fransuz tiliga tarjima qilindi. Uning birgina “Esdaliklar” asari to‘la holida 1954–1978-yillar orasida faqat rus tilida 14 marta qayta-qayta chop etiladi¹³⁹. Lui Aragon yevropaliklarni S.Ayniy bilan tanishtirar ekan: “Sadriddin Ayniy o‘zining “Sudxo‘rning o‘limi” asari bilan jahon adabiyotining buyuk namoyandalari Balzak, Shekspir, Gyotelar qatorida turadi”¹⁴⁰, – deya yuksak baho berdi.

Eron adibi Said Nafisiy va afg‘on yozuvchisi Gul Pocho Ulfat, rus adiblari Konstantin Fedin va L.Leonovlar S.Ayniyning jahon adabiyotining buyuk namoyandalari Jek London, Redyard Kipling, Maksim Gorkiy va Knut Gamsunlar qatoriga qo‘yishgan¹⁴¹. “Esdaliklar” 1957-yili mashhur fransuz yozuvchisi Lui Aragon tahririda “Sharq” nomi bilan Fransiyada bosilib chiqqan edi. Nemis adibi

¹³³ Айни С. Камол Хўжандӣ // “Шарки сурх”. 1957, – № 5; Устод Рудақӣ // “Шарки сурх”. 1940, – № 2. – саҳ. 30–43; Алишер Навоӣ // “Шарки сурх”. 1941, – № 1. – саҳ. 23–28; Восифӣ ва асари ӯ “Бадоеъ ул-вақоеъ” // “Шарки сурх”. 1946, – № 4-5; Мирзо Абдулқодир Бедил. – Сталинобод, 1954. – 339 с; Бертельс Е.Э. Айнийнинг “Бедил монографиясига муқаддима” / Айний замондошлари хотирасида. – Б. 125–129.

¹³⁴ Айни С. Бухара (Воспоминания). В двух книгах. – Душанбе: Ирфон, 1980–1981.

¹³⁵ Айний С. Эсдаликлар. I–IV қисмлар / Асарлар. 8 томлик. 5–7 томлар. – Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1965–1967.

¹³⁶ Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, хикоялар, шеърлар (Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Ҳасанов). – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 191.

¹³⁷ Айний замондошлари хотирасида. – Б. 190–194.

¹³⁸ Sadriddin Ayniyning jahon madaniyati, adabiyoti va tarixiga qo‘shgan hissasi haqida yana batafsil qarang: Toxirova S.X. Sadriddin Ayniy asarlarining Yevropa adabiyotiga ta’siri va tarjimasini: filol. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – B.15-16.

¹³⁹ Асимов М., Брагинский И.С. Садриддин Айни (100 лет со дня рождения). – Москва: Знание, 1978. – Стр. 59.

¹⁴⁰ Брагинский И.С. Садриддин Айни очерк жизни и творчества. – Москва, 1959. – Стр. 78.

¹⁴¹ Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, хикоялар, шеърлар (Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Ҳасанов). – Б. 194.

Alfred Kurella esa, S.Ayniyni “Sharq madaniyatini puxta o‘rgangan buyuk bilimdon, uning vorisi”¹⁴² deb, munosib e’tirof etgan edi.

XULOSA

Yosh buxoroliklarning taniqli siymolaridan, taraqqiyparvar, ma’rifatparvar adib, tarixchi, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, akademik Sadridin Ayniyni Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni va ilmiy merosi haqidagi ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an’analarini qayta tiklash, milliy o‘zlikni anglash, xalqimizning moddiy va ma’naviy meros namunalarini xolisona o‘rganish imkoniyati yaratildi. Hozirgi kunda ma’rifatparvar ziyolilarning ibratli hayot yo‘llari, ma’naviy-ma’rifiy va tarixiy qarashlarini zamon talablari asosida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jadidchilik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar, tarixiy hujjatlarni aniqlash, to‘plash, saqlash, o‘rganish, tiklash, nusxalash, e’lon qilish, ular asosida Muzei fondlarini boyitib borish va ekspozitsiyalar yaratilmoqda, shuningdek, madaniy-ma’rifiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati amalga oshirilmoqda. Ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqbolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilinmoqda.

2. Sadridin Ayniyni ijodi amirlik tuzumi davrida Buxoro ilmiy-adabiy muhitida shakllandi. Uning otasi Saidmurodxo‘ja haqiqatparvar, ilmparvar, xalqparvar va hayotga faol munosabatda bo‘luvchi kishi edi. Shu fazilatlar bolaligidan boshlab yosh Ayniy ruhiyatiga, qalbiga ham singib bordi. Natijada, uning ijodida oddiy xalq vakillari siymosi bo‘y ko‘rsatdi. S.Ayniy shaxsiyati uchun eng xarakterli xususiyat: mehnatsevarlik, xalqparvarlik, ijodi uchun esa o‘shish va o‘zgarish, badiiy-g‘oyaviy nuqson va kamchiliklardan xoli bo‘la borishdir. Agar olim o‘z ijodining dastlabki davrlarida yaratgan asarlarida badiiy-tarixiy mukammalikka erisha olmagan bo‘lsa, keyinchalik hayotiy haqiqat zaminida mustahkam turgani holda g‘oyaviy umumlashmalar berdi.

3. S.Ayniy taraqqiyparvar ziyoli, shu bilan o‘z yurti va xalqini chin dildan sevgan inson edi. U o‘z xalqi, yurtdoshlari taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shuning uchun u Buxorodagi jadidlar bilan birga edi. Ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishga, yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish, o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishga astoydil kirishgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tavallo, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalar bilan bir safda Sadridin Ayniy xalqning dard-u hasratini, uning ayanchli va mudhish qismatini, fojiali turmush tarzini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, qalbi va vujudidan o‘tkazib, aql-zakovatini, butun ongli hayotini shu xalq erki, ozodligi va taraqqiyotiga safarbar qildi.

¹⁴² Альфред Курелла. Шарк ва Фарб воситачиси / Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, хикоялар, шеърлар (Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Хасанов). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 37-40.

4. S.Ayniy XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Turkistonda shakllana boshlangan jadidchilik harakatida va Yosh buxoroliklar tashkiloti faoliyatida muhim rol o‘ynadi hamda Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi hamda rivojlanishida salmoqli hissa qo‘shdi. U “Tarbiyayi atfol” (“Bolalar tarbiyasi”), “Ma’rifat kutubxonasi” va “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” (“Buxoro umumiy maorif jamiyati”) kabi tashkilotlarni tuzishda faollik ko‘rsatdi. Shuningdek, jadid maktablarida yangi o‘quv dasturlarini joriy qilish, zamonaviy darsliklardan foydalanish, dunyoviy fanlarni o‘qitish va yosh avlodning yangicha g‘oyalar bilan shakllanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

5. S.Ayniyning ijodiy yo‘nalishiga mansub barcha yirik asarlarida va maqolalarida Turkiston xalqlarining mushtarak hayoti, Buxoro amirligining XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ziddiyatlarga to‘la murakkab davri, inqilobiy harakatlar, maorif va madaniy yangiliklar, mahalliy xalqlarning og‘ir turmush tarzi, urf-odatlar aks ettirilgan. S.Ayniy bu davrda faqat yozuvchi, publitsistgina emas, balki tarixchi, tanqidchi va adabiyotshunos olim sifatida ham tanildi. Keyingi paytlarda yurtimizda S.Ayniy ijodiyotiga qiziqishning pasayishi bu bizning fan, madaniyat va adabiyotdan uzoqlashayotganligimiz, tarixiy xotiraga befarqligimiz, ilm-ma’rifat zavqining susayishiga ko‘nikayotganligimizdan bir nishonadir.

6. S.Ayniy XX asrning mashhur va takrorlanmas ijodkorlaridan biridir. Uning hayot va ijod yo‘li XIX asr oxirgi choragi va XX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy jarayonlarning g‘oyatda murakkab va qiyin davrlarida kechdi. Yigirma yilga yaqin madrasa ta’limini olgan, amirlik tuzumini hamda keyingi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni ich-ichidan bilgan, ba’zan qatag‘on va kamsitishlarga uchragan bu ulkan adib o‘z asarlarida xalq hayotini butun murakkabliklari bilan badiiy tasvirlash orqali tarix va davrni o‘ziga xos ravishda birlashtirib, XX asrning avvalida shakllana boshlagan yangi adabiyotning asoschilaridan biri, yirik adabiy va tarixiy siymo sifatida bo‘y ko‘rsata oldi. Shuning uchun ham uning g‘oyatda murakkab ijodi va faoliyatiga bir nuqtadan baho berish mumkin emas.

